

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK  
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**AGROTEXNOLOGIYA, ISHLAB CHIQRISHNI  
MEXANIZATSIYALASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH KAFEDRASI**

**“OZUQA EKINLARI YETISHTIRISHNI MEXANIZATSIYALASHTIRISH”  
FANIDAN MA’RUZA MASHG‘ULOT ISHLANMASI**

**Mavzu: “Qishloq xo‘jaligi texnikalariga texnik servis ko‘rsatish”**

**SAMARQAND 2023**

**Tuzuvchi: T.Xayitov**

**Taqrizchilar:**

**Agrotexnologiya fakulteti t.f.d., dotsenti**

**A.Musurmanov**

**ToshDAU Samarqand filiali, texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori(PhD)**

**Islomov Y.I.**

## Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

<i>Vaqt – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 22 nafar</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Axborot, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</i>	1. Texnik servisning turlari, texnik diagnostika va texnik xizmatni amalga oshirish.  2. Texnik xizmat va texnik diagnostikaning texnologik operatsiyalari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Mavzu to'g'risida umumiy tasavvurlarni shakllantirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Mashinalarga texnik xizmat kursatish ahamiyati; - Texnik xizmat kursatishda diagnostika vositalari. Mashinalarga TXK dagi asosiy jixozlar;	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Mashinalarga texnik xizmat kursatishning ahamiyati nimada ekanligini aytadi; - Mashinalarga TXKning qanaqangi turlari mavjud;
<i>Ta'lim usullari</i>	Axborot ma'ruzasi, Insert, prezentatsiya,
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Proektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: - tezkor so'rov

## O'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasi

	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (10 minut)	1.1.Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2.Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash me'zonlarini e'lon qiladi. 1.3.Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralarini va ma'ruza rejasiga izoh beradi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar 1.2.Eshitadilar yozib oladilar 1.3.Eshitadilar
Adabiyotlar		
2-bosqich	2.1.Talabalarga BBB-sxema bo'yicha	2.1.Savollarga

<p>Asosiy (60 minut)</p>	<p>savollar beradi. 2.2. Traktor va qishloq xo‘jalik mashinalarida TXKning tarkibiy qismlari. 2.3. TXK davriyligi nimalarga asoslangan. 2.4. Qishloq xo‘jalik mashinalarida TXK qanday tartibda o‘tkaziladi. 2.5. Talabalarga erkin fikr aytishga ruxsat beriladi va ularni rag‘batlantiradi. 2.6. Talabalarni e‘tiborini ushbu mavzudagi masalaning mazmuniga qaratadi.</p>	<p>javob berishadilar va BBB-sxemasini bajaradilar. 2.2. Tinglaydilar. 2.3. Tinglaydilar. 2.4. Tinglaydilar. 2.5. Fikrlarini aytib beradilar. 2.6. Xulosa qismida qatnashadilar.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy (10 minut)</p>	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi. 3.2. Mavzuni mustaxkamlash uchun klaster usulidan foydalanib savol javob o‘tkazadi, mavzuni mustahkamlaydi. 3.3. Mustaqil bajarish uchun topshiriq beradi.</p>	<p>3.1. Eshitadilar. 3.2. Savollarga javob berishadilar. 3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar yozib olinadi.</p>

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** diagnostika-tashxislash, tashxislash ob’ektlari, datchik-ulchagichlar, texnik xolat, resurs, texnik imkoniyat darajasi, akustika, kuvvat, sub’ektiv, ob’ektiv, tebranish, aylanish chastotasi, shovkin tovushlar, bosim va boshkalar.

**Mavzuga oid muammolar:**

1. Kishlok xujaligi texnikasining texnik xolatini aniklash maksadida foydalaniladigan diagnostik usullar yordamida TXK va ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun sarflangan mablaglarni 2 barobar kamaytirish mumkin. Bunga kaysi amaliy xdrakatlar asosida erishiladi?
2. Tashxislash detallarning ishlash muddatlarini uzaytiradi, degan tushuncha mavjud. Siz buni kanday izoxlaysiz?

Mashina-traktor parkiga **texnik xizmat ko‘rsatish** tashkiliy, texnik, texnologik va mashinalarni ishga qobiliyatli, soz holatda saqlashga hamda ishlatish davomida ularda nuqson paydo bulishiga yul quymaslikka qaratilgan bir qancha tadbirlar tuplamidan iborat.

**Texnik xizmat ko'rsatish** tadbirlariga yangi va kapital ta'mirlashdan chiqqan mashinalarni ekspluatatsion chiniqtirish, yoqilgi va moylash materiallari quyish, ularga diagnoz qilish bilan texnik xizmat ko'rsatish, shuningdek, ekspluatatsiya sharoitlarida vujudga kelgan nuqsonlarni tuzatish (ekspluatatsion ta'mirlash) va boshqalar kiradi.

### **Mashinalardagi nuqsonlar va ularning sodir bo'lish sabablari.**

Qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanishda unga ichki va tashki faktorlar ta'sir kiladi.

Ichki faktorlarga mashina detallari, uzellari va yig'ma qismlarining tayyorlanishidagi konstruktiv-texnologik faktorlarini kiritish mumkin.

Tashqi faktorlarga ishlash sharoitining tabiiy sharoitlari, tuproqning fizik-kimyoviy tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash darajasi, hamda ulardan tug'ri foydalanish qoidalariga rioya qilish kabilarni kiritish mumkin.

### **Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish ahamiyati.**

Texnika ishga yaroqli holatda bulgandagina undan yuqori unumli va tejamli foydalanish mumkin. Dala ishlarini qisqa agrotexnika muddatlarida bajarish zarurligi tufayli mashinalarning ishga tayyorligi ayniqsa qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida muhim ahamiyatga ega.

Mashina-traktor agregatlari ishlash sharoitining ta'siri natijasida intensiv ravishda yeyilib boradi. Agar mashinalarni texnik jihatdan ishga yaroqli bo'lishiga qaratilgan choralarda o'z vaqtida va sifatli bajarilmasa bu faktorlarning ta'sir etishi natijasida mashinalarning ekspluatatsion ko'rsatgichlari ancha pasayishi, shuningdek, texnik kamchiliklar natijasida agregatlar to'xtab qolishi mumkin.

### **Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatishning tarkibiy qismlari.**

Mamlakatimizda traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishning ilmiy jihatdan asoslangan rejali-ogohlantiruvchi sistemasi qabul qilingan. Texnik xizmat ko'rsatishning mavjud rejali-ogohlantiruvchi sistemasi barcha traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalari uchun yagona hisoblanadi. Unga quyidagi asosiy xizmat ko'rsatish turlari kiradi:

1. Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarini tashishda TXK. Bu tashishga tayyorlash, joydan joyga olib borish va belgilangan joyga kelgach, xizmat ko'rsatishdan iborat.

2. Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanishda ularga texnik xizmat ko'rsatish; bunga ekspluatatsion chiniqtirishda TXK, ya'ni chiniktirishga tayyorlashda, chiniktirish protsessida va u tugagach xizmat kursatish; xar smenada TXK; birinchi, ikkinchi, uchinchi vama'vsumiy TXKlarni uz ichiga oladigan davriy texnik xizmatkursatishlar kiradi.

### **Texnik xizmat ko'rsatish sistemasining tarkibiy qismlari.**

Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash asosan quyidagi talablarga ko'ra o'tkaziladi:

- a) nuqson sodir bulganda;
- b) ishlagan vaqtiga asosan kalendar kun rejasiga ko'ra (rejali -ogohlantirish);
- v) doimiy kuzatishdagi texnik holatiga ko'ra.

Birinchi talabda ishlash vaqtida sodir bulgan nuqsondan keyin o'tkaziladi.

Ikkinchi talabda TXK va remont qilish oldindan tuzib chiqilgan rejaga asosan normativ bo'yicha ishlagan ish hajmiga moto/soatga qarab o'tkaziladi.

Hozir qishloq xo'jalik mashinalariga TXK va ularni remont qilish sistemasi GOST 18332-78 ga muvofiq amalga oshiriladi va quyidagi TXK turlarini o'z ichiga olgan:

- ekspluatatsion chiniqtirishda texnik xizmat ko'rsatish;
- tashishda texnik xizmat ko'rsatish;
- har smenada texnik xizmat ko'rsatish (XSTXK);
- birinchi texnik xizmat ko'rsatish (1-TXK);
- ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (2-TXK);
- uchinchi texnik xizmat ko'rsatish (3-TXK);
- mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish (MTXK);
- saqlash jarayonida texnik xizmat ko'rsatish.

Qishloq xo'jalik zonalaridan qattiq nazar, barcha markadagi traktorlar uchun moto-soat bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish vaqti bir xil buladi. Jumladan, 1-TXK 60 moto-soat, 2-TXK 240 moto-soat va 3-TXK 960 moto-soatdan keyin o'tkaziladi. Sarflangan yonilgi buyicha texnik xizmat ko'rsatish traktor markasiga bog'lik. Traktorlarning ish sharoitlariga qarab, birinchi va ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish muddatlari +10% ga, uchinchi texnik xizmat ko'rsatishni +5% ga uzgartirish mumkin.

### **Texnik xizmat ko'rsatish guruhidagi ishchilar soni quyidagicha aniqlanadi.**

$$P_r = \Sigma Q_r / F_r$$

bu yerda

$\Sigma Q_r$  - TXKdagi mehnat sarfi, kishi/soat;

$F_r$  - ish vakti fondi, soat.

$$F_r = D_r T_{sm} K_s \tau$$

bu yerda  $D_r$  - berilgan muddatdagi ish kunlari soni;

$T_{sm}$  - smena davomiyligi, soat;

$K_s$  - smena karraligi koeffitsienti;

$\tau$  - smena vaktidan foydalanish koef-ti;

(PTO da  $\tau = 0,7 \div 0,8$ , xarakatdagi TXK agregatida  $\tau = 0,6 \div 0,65$ ).

### **Texnik xizmat ko'rsatish vositalari.**

Quzg'almas va harakatdagi texnik xizmat kursatish vositalari texnologik jixozlar va inshootlarni o'z ichiga oladi.

**Qo'zg'almas TXK** vositalari tarkibiga KSTO-1; KSTO-2; KSTO-3 lar kiradi. Ular bir-biridan tarkibidagi jixozlanishi bilan fark qiladi. Ularning qaysi birini tanlash texnik bazalar va bajariladigan ishlarning murakkabligi hamda hajmiga qarab olinadi.

**Harakatdagi vositalarga:** avtomobil bazasidagi TXK agregati; ikki o'qli pritsep bazasiga yoki o'zi yurar shassiga o'rnatilgan TXK agregati; xarakatdagi remont va remont-diagnoz qilish ustaxona (avtomashina shassiga urnatilgan) bir o'qli pritsepda urnatilgan elektr payvandlagichi bilan avtomobil furgondagi diagnostik qilish qurilmasi avtomobil shassisiga yoki ikki o'qli pritsepga o'rnatilgan yonilg'i-moylash materiallari quyish agregati. Markaziy ishlab chiqarish bazasi asosan xo'jaliklarda mashinalarga TXK inshooti hisoblanadi.

### **Mashinalarga TXK dagi asosiy jixozlar.**

Ko'zlash-diagnostika qilish vositalari: KI-3924-GOSNITI olib yurib diagnostika qilish priborlari, KI-13919A-GOSNITI quzg'almas diagnostik qilish vositasi, KI-13905M-GOSNITI harakatdagi diagnostik qilish jihozi, KI-13950-GOSNITI avtomatlashtirilgan mashinotestr.

Moylash va quyish vositalari: OZ-4967M-GOSNITI quzg'almas moylash va quyish ustanovkasi, OZ-9902A- GOSNITI harakatdagi moy quyish ustanovkasi, OZ-16384- GOSNITI harakatdagi moy quyish ustanovkasi, OZ-16302- GOSNITI STOT uchastkasidagi moylash va yoqilgi quyish jixozlar komplekti.

Yoqilgi quyish vositalari: OZ-9936-GOSNITI yoqilgi quyish ustanovkasi, OZ-18008-GOSNITI avtomatlashtirilgan yoqilgi quyish ustanovkasi.

Diagnostikalash – avtomobilni va qishloq xo'jalik mashinasini yaxlit holda hamda uning agregat va uzellarining texnik holatini qismlarga ajratmay baholash, nosozliklarni aniqlash, ularni tuzatish uchun lozim bo'lgan rostlash va ta'mirlash ishlari xajmini aniqlash, shuningdek, avtomobilning ishonchli ishlash resursini oldindan bilish imkoniyatini yaratadi.


Yuk avtomobillari va avtobuslar uchun bir necha turdagi tortuvchi va yuklanishli KI-4856, KI-8930, KI-4998 va boshqa stendlar ishlab chiqilgan. Engil avtomobillar uchun U-409M, K-424 va boshqa stendlar ishlatiladi.

### **Diagnostikalash turlari.**


Harakatdagi TXK va JT tizimi bo'yicha diagnostikalash ikkita asosiy turga bulinadi: **umumiy D-1** va **elementlar bo'yicha (chuqurlashgan) D-2**. Umumiy diagnostikalashda yo'l xarakati xavfsizligini ta'minlovchi agregat va uzellarni texnik xolati aniqlanadi va avtomobilning keyingi ishlatilishiga yaroqliligi baxolanadi.

Elementlar bo'yicha diagnostikalashda nosozliklar aniqlanadi, soz ishlash resursi prognoz qilinadi va navbatdagi 2-TXKgacha avtomobilni soz xolatini ta'minlash uchun lozim bo'lgan rostlash va ta'mirlash ishlarining xajmi belgilanadi. Kunlik dastur va avtomobillarning turlariga kura diagnostikalash ishlari **uzluksiz liniyada** yoki **aloxida postlarda** amalga oshiriladi.

## АТК да avtomobillarga xizmat ko'rsatishning texnologik jarayoni sxemasi




Термостатларни текшириш sxemasi



1-kronshteyn; 2-termometr; 3-indikator; 4— termostat; 5-suvli vanna; 6-  
elektr plitka.



## Harorat ko'rsatkichlarni tekshirish



a-kursatkichni komplekt holati; b-priyomnik; v-datchik. 1-priyomnik; 2-datchik; 3-suvli germetik vanna; 4-simobli termometr; 5-avtomobil radiatori kopkogi; 6-elekr kizdirgichli uskuna; 7-chiqish kuchlanishini rostlovchi avtotransformator; 8~karshiliklar qutisi; 9-etalon priyomnik; 10-ampermetr; 11—voltmetr

## Mashinalarni saqlash texnologiyasi va uni tashkillashtirish.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri texnologik jarayonlarni mavsumda, eng qulay paytda bajarilishidir. Masalan, mamlakatimiz sharoitida yerga asosiy ishlov berish kuz va qish paytlarida, donli ekinlarni yiliga bir bor qisqa muddatlarda yig'ib olish, paxtani esa 25—40 kunda terib olishni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi texnologik jarayonlarni bajarishda qo'llaniladigan mashinalardan yil davomida foydalanish muddati juda qisqa bo'lib, bor-yo'g'i 10...30% ni tashkil etadi. Mavsumda o'z vazifasini bajarib bo'lgan mashina va mexanizmlarning tabiiy yemirilishlarini oldini olish, iloji boricha bu ko'ngilsiz hodisani kamaytirish uchun ularni saqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Mashina va mexanizmlarni ishlamay turishidagi yemirilishi tutash yuzalar, ochiq sirtlarda metalning oksidlanishidan iborat bo'lib, biz buni zanglash deb tushunamiz. Zanglash jarayoni metalning sirtida nam va issiq havo ta'siri ostida kislorod, azot, karbon, ishqor hosil qiluvchi tuzlar va yemiruvchi kislotalarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Yemiruvchi gaz va suyuq moddalar metall sirtiga 0,1...0,3 mm chuqurlikda kirib boradi va uning tarkibini o'zgartirib, mustahkamligiga putur yetkazadi. Bu hodisani adabiy-texnik tushunchasi korroziyadir. Korroziyaning rivojlanishi sababchisi, asosan,

namgarchilik bo'lib, uning ta'sir darajasini issiqlik va elektr, kimyoviy reaksiyalar oshirishi mumkin. QXM larning korroziyaga uchrash hodisasini ilmiy o'rganishlar natijasiga ko'ra, ularni saqlanish muddatlariga qarab quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi: ochiqda saqlash, berk joyda saqlash va har ikki usulning uyg'unlashuvi kombinatsiya usulidir. Saqlash muddati qisqa va uzoq bo'lishi mumkin.

### **Mashinalarga TXK va remont qilish turlari va davriyligi**

Mashinalardan foydalanish jarayonida yo'qotilgan ishga yaroqli holatini ushlab to'rish va tiklash uchun TXK va remont qilish sistemasida quyidagi elementlar belgilangan, ya'ni:

- foydalanish davrida texnik xizmat ko'rsatish;
- smenali yoki kundalik texnik xizmat ko'rsatish (KTXK);
- nomerli texnik xizmat ko'rsatish –TXK-1, TXK-2, TXK-3;
- mavsuliy texnik xizmat ko'rsatish (MTXK);
- texnik qarov (TK);
- joriy remont (JR);
- kapital remont (KR).

Nomerli TXK ning davriyligi quyidagicha (jadval 1).

Jadval 1

### **Nomerli TXK ning davriyligi**

№	Mashinalar, ulchov birligi	TXK-1	TXK-2	TXK-3
1	Traktorlar, moto-soat	125	500	1000
2	o'z i yurar kombaynlari va mashinalar, moto-soat	60	240	-
3	o'z i yurmaydigan kombaynlar va mashinalar, soat ishlagandan keyin	60	-	-
4	Avtomobillar*, o'tilganyo'l:			
	Engil	3000	12000	-
	avtobus	2800	11200	-
	yuk avtomobili	2500	10000	-

\* - 3 kategoriyaliyo'l uchun.

KTXK traktorning yoki mashinaning 8...10 soat ishlaganidan keyin o'tkaziladi.

Traktorga TXK davriyligini sarflangan yonilg'i mikdori yoki shartli etalon gektarga (sh.et.ga) ham aniqlash mumkin, kombayn va qishloq xo'jalik mashinalari – fizik gektarda (fiz.ga).

Ekish va o'tkazish mashinalari, jatka va podboruqniklar, o'simliklarini ximoya qilish mashinalari va o'g'it sepish mashinalari uchun bitta nomerli TXK belgilangan va TXK-1 har 60 soat ishdan keyin o'tkaziladi.

CHorvachilik fermasi jixozlari uchun TXK-1 va TXK-2 o'tkazish davriyligi bajarilgan ish soati bo'yicha belgilangan. S o't yo'nalishidagi ferma jixozlari va kompleks mashinalar uchun TXK-1 120 soatdan keyin (oyida 1 marta) va TXK-2 720...1440 soatdan keyin (yiliga 1-2 marta) o'tkaziladi; chuchkanchilik burdokchiligida – TXK-I 120 soatdan keyin (oyiga 1 marta) va TXK-2 720 soatdan keyin (yiliga 2 marta); tovukchilikda – TXK-I 240...360 soatdan keyin (ikki oyda bir marta) va TXK-2 720...960 soatdan keyin (yiliga ikki marta).

Mavsuliy texnik-xizmat ko'rsatish (MTXK) yiliga 2 marta o'tkaziladi: baxorgi-yozgi ishlarning boshlanishidan oldi va k o'z gi-kishki davrda foydalanishda. MTXK quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi: sov o'tuvchi suyuqlikni, moyni almashtirish, elektrod ztchligini mavsuliy normagacha etkazish, isitish che holini urnatish (olish) va Boshqalar.

Texnik qarov mashinalarning texnik holatini aniqlash uchun yiliga 1-2 marta o'tkaziladi.

Traktorlarning joriy remonti rejali ham, ya'ni 1700...2100 moto-soat ishlagandan keyin va rejasiz ham bo'lishi mumkin.

Kombaynlarning joriy remonti har yili mavsum tugagandan keyin o'tkaziladi. Rejalashtirilmagan joriy remont ishlmay qolishni t o'z atish uchun o'tkaziladi.

Qishloq xo'jalik mashinalarining joriy remonti rejali va rejalashtirilmagan bo'lishi mumkin. Odatda joriy remont dala ishlari tugatilgandan keyin o'tkaziladi.

Avtomobillarning joriy remonti davriylik bo'yicha reglamentlanmagan, uni ishga yaroqli holatini tiklash uchun o'tkaziladi.

o'z b yokiston respublikasi dalalarida ishlatilayotgan MAGNUM-7240, 8940, traktorlariga sersiv xizmat ko'rsatish davriyligi o'z b yokiston respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan 2000 yilda tasdiklangan va « o'z qishloq xo'jalik ta'minot t o'z atish» davlat kooperativ kumitasi raisi bilan kelishilgan «Davlat texnika nazorati organlari tomonidan xaydov agregatlarini mavsum oldi texnik qurigidan o'tkazish tartibi» ga binoan quyidagicha belgilangan. (2-jadval).

KEYS-2166, 2366 rusumli g'alla kombaynlariga ham servis xizmatini ko'rsatish davriyligi kombaynlar uchun mavsumdan oldin va hosilni yig'ib olgandan keyin qursatiladigan servis xizmati belgilangan.

Neksiya va Damas avtomobillariga davriy texnik xizmat ko'rsatishning muxlati va jadvali quyida berilgan. (3-jadval). Ushbu jadval 2000 yil o'z b yokiston respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilangan.

Samarkand shaxridagi «SamKochAvto» kushma korxonasi ishlab chiqarilayotgan avtobuslarga turt turdagi texnik xizmat qursatiladi:

1. MO - bu xizmat avtobusning birinchi 3000-4000 km. Masofa bosib o'tishidan sung bajariladi.

2. M1 va M2 – har bir 20000 km masofa bosib o'tilgandan keyin bajariladi.

3. M3 – har bir 40000 km masofa bosib o'tilgandan sung bajariladi.

har bir texnik xizmat ko'rsatish jarayonida bajariladigan ishlar maxsus adabiyotlarda berilgan.

### **Muxokama savollari va topshiriklar:**

1. Traktor va qishloq xo'jalik mashinalarida TXKning tarkibiy qismlarini ayting.
2. Texnik xizmat ko'rsatish jarayonini qanday bosqichlarga bulish mumkin?
3. Texnik xizmat ko'rsatishning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4. Traktorlarda eksplutatsion chiniqtirish nima maqsadda o'tkaziladi?
5. Davriy texnik xizmat ko'rsatish deganda nimani tushunasiz?
6. Davriy texnik xizmat tarkibi qanday bo'ladi?
7. TXK davriyligi nimalarga asoslangan bo'ladi?
8. Qishloq xo'jalik mashanalarida TXK qanday tartibda o'tkaziladi?
9. Texnik xizmat ko'rsatish vositalariga nimalar kiradi?
10. TXK dagi asosiy jixozlardan qaysilarini bilasiz?

### **Nazorat uchun test savollari:**

#### **1. TXK ning kaysi turi davriy deyiladi?**

- A) TXK-1; TXK-2; TXK-3
- B) TXK-1
- C) TXK-1; TXK-2
- C) MTXK

#### **2. TXK ning kaysi turi mavsumiy deb aytiladi?**

- A) MTXK
- B) TXK-1
- C) TXK-2
- D) TXK-3

#### **3. MTA ning texnik xususiyatiga nimalar kiradi?**

- A) Ishonchlilik, chidamlilik, tamirgarlik, saqlanuvchanlik, to'xtovsizlik, og'irlik, massa, shakl
- B) Texnologik qobiliyat va texnologik parametrlar
- D) Talab qilinadigan quvvat, ishchi qarshiligi

E) Buriluvchanlik, o'tuvchanlik, turg'unlik, transportga moslashganlik.

**4. Yozgi motor moylari qishgisiga qachon amlashtiriladi?**

- A) MTXK
- B) TXK-1
- D) TXK-2
- E) TXK-3

**5. 370. Mashina traktor parki nima?**

- A) Traktor va qishloq xo'jalik mashinalari, ularga texnik xizmat ko'rsatish vositalaridan tashkil topgan park
- B) Mashinalar va ularga texnik xizmat ko'rsatish vositalaridan tashkil topgan saroy traktorlar saroyi
- D) Qishloq xo'jalik mashinalari, ularga texnik xizmat ko'rsatish vositalaridan tashkil topgan park
- E) Fermerlar texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish punkti

**6. Q/x texnikasini saqlashining usullari?**

- A) Ochiq, yopiq, kombinatsiyalashgan
- B) Yopiq
- D) Kombinatsiyalashgan
- E) Ochiq

**7. Mashinaning uzoq muddatli saqlash qancha davom etadi?**

- A) 2 oydan ortiq
- B) 10 kundan 1 oygacha
- D) 10 kundan 2 oygacha
- E) 20 kungacha

**8. Mashinalarni ta'mirlash va txk ishlarining qanaqa turlari bo'ladi?**

- A) KTXK TXK-1 TXK-2 TXK-3 MTXK TK JT KR
- B) KTXK TXK-1 TXK-2 TXK-3 JT KT
- D) JR KT TXK-1 TXK-2 TXK-3
- E) JT KR MTXK TK-TK-2 KTX-2 TXK-4 KR-1

**9. Chorvachilikda mashina va jihozlarga ta'mirlash-xizmat xizmat ko'rsatish ishlarining qanday turlari belgilangan?**

- A) (KTXK), davriy texnik-xizmat ko'rsatish, texnik qarov va ta'mirlash (joriy, kapital);
- B) Texnik qarov va ta'mirlash (kapital joriy)
- D) Kundalik texnik xizmat kursatish (KTXK) davriy texnik xizmat kursatish (TXK-1 va TXK-2) texnik qarov joriy va kapital joriy va texnik xizmat kursatish;
- E) Kundalik xizmat kursatish (KTXK) texnik qarov va ta'mirlash (joriy kapital)

**10. Kombayn va murakab qishloq xo'jalik mashinalari uchun TXK-1 davriyligi necha moto-soatga belgilanadi?**

- A) 60
- B) 65
- D) 70
- E) 55

**11. Kombayn va murakkab qishloq xo'jalik mashinalari uchun TXK-2 davriyligi necha moto-soatga belgilanadi?**

- A) 240
- B) 260
- D) 340
- E) 1000

**12. Kombayn va murakkab q/x mashinalari uchun kundalik davriyligi qancha moto-soatga belgilangan?**

- A) 8...10
- B) 60
- D) 10. ..12
- E) 6. . .8

**13. Qishloq xo'jalik masinalarini diagnostikalash jihozlari.**

- A) KI-13919A, KI-13905M, OZ-9902A
- B) KI-13919A, PD-15214, DI-25413
- D) OZ-9902A, DI-25413
- E) KI-13905M, PD-15214

**14. Diagnostikalash turlari.**

- A) Umumiy D-1, Elementlar bo'yicha (chuqurlashgan) D-2
- B) Umumiy D-1, TXK-2, TXMK
- D) Elementlar bo'yicha (chuqurlashgan) D-2
- E) Elementlar bo'yicha (chuqurlashgan) D-2, TXK-2, TXMK

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A.Obidov, R.Xalilov va boshqalar. Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish. Toshkent «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» - 2018 (lotin alifbosida).

2. A.I. Komilov, K.A. Sharipov, N.T. Umirov, I.M.Marupov, R.T.Rustamov. Traktor va avtomobillar. - Toshkent «Talqin» - 2003 (lotin alifbosida).

3. Shoumarova M., Abdillaev T. Qishloq xo'jaligi mashinalari. - Toshkent, O'qituvchi 2002 y. (darslik).

4. A. Obidov. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va dastlabki ishlashni mexanizatsiyalash. - Toshkent «Tosh DAU tahririyat-nashriyot bo‘limi», 2019 (lotin alifbosida), darslik.

5. I. Solihov. Traktorlar va avtomobillar, Toshkent «Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi» - 2012 (lotin alifbosida).

6. A. Obidov. Mashina-traktor parkidan foydalanish. - Toshkent, “Tafakkur qanoti”, 2013 (darslik).

